

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“ANIQ VA TABIIY FANLAR TA'LIMI” KAFEDRASI

FARG'ONA VILOYATI UCHKO'PRIK TUMANI

27 – UMUMTA'LIM MAKTABINING

MATEMATIKA FANI O'QITUVCHISI

DEHQONOV ABDUVOHIDning

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Farg'ona – 2012 yil

TEKNOLOGIK XARITA

Mavzu	ODDIY KASRLAR.
Maqsad,vazifalar	1.Oddiy kasrlarga doir masalalar yechish haqida tushuncha berish 2.Kasbiy va ahloqiy tarbiya elementlarini singdirish,o'zaro hamkorlik, faollik va madaniyatlikka o'rgatish. 3.Ularni idrok qilishga ,mustaqil fikrlashga o'rgatish
O'quv jarayonining mazmuni	1. Oddiy kasrlarga doir masalalar yechishning ahamiyatini tushuntirish,amalda Oddiy kasrlardan foydalana olish.Fan yangiliklari haqida tushuncha berish 2.Mavzuga oid masalava misollar yechish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Vosita:darslik,chizma Metodi: interfaol,aqliy hujum,Bumerang usuli,bahs-munozara dars turlaru uy'g'unligi. Nazorat:og'zaki nazorat,savol-javoblar,masalalar yechish
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Oddiy kasrlarga doir masalalar yechish haqida tushuncha berish va mavzu haqida bilim va malaka,ko'nikma hosil qilish. Oquvchi: Oddiy kasrlarga doir masalalar yechish bilimlarini amalda qo'llay olish.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi:Yangi pedtexnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish.Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash pedagogik mahoratini oshirish; O'quvchi:mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi va

	o'rganadi.
--	------------

Mavzu: **ODDIY KASRLAR.**

Darsning maqsadi: O'quvchilarga oddiy kasr haqida tushuncha berish, bilimni oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: oddiy kasr haqida tushunchaga ega bo'lish, kasrning surati, maxraji va kasr chizig'ini ma'nosini bilish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida ulg'aytirish milliy urf-odatlarimizga hurmatda bo'lishga chorlash.

Darsning borishi:

a) salomlashish.

b) davomatni aniqlash.

c) vazifani tekshirish, o'tilganlar yuzasidan savol-javoblar, tarqatmali materiallar.

Darsning turi: interfaol usulda.


Darsning metodi: bahs munozara, Bumerang.

Darsning jihozi: doska, chizma, formulalar.

Dars bayoni.

$\frac{k}{n}$ ko'rinishidagi sonlar oddiy kasr deyiladi. Ma'nosiga ko'ra k va n lar natural sonlardir.

AB kesmani chizing va uni teng 2 bo'lakka bo'ling.



Mana shu ikki bo'lakdan biri AC yoki CB AB kesmaning ikkidan bir qismini
(ulishi bo'lagi) $\frac{1}{2}$ ni tashkil etadi.

$$AC = CB = \frac{1}{2} AB$$

Bitta ulush yoki bir nechta teng ulushlar yig'indisi kasr son deyiladi.

$\frac{1}{2}$ yozuvda chiziqcha ustidagi son kasrning surati, tagidagi son kasrning mahraji deyiladi.

O'qilishi: $\frac{3}{8}$ sakkizdan uch

$\frac{1}{2}$ ikkidan bir

Darsni mustahkamlash:

549-misol.

Kasr ko'rinishida yozing. 1) beshdan uch

2) yettidan besh

3) yuzdan yetti

4) yuzdan bir

550-misol.

Uzunligi 3 sm ga teng AB kesmani bir butun deb oling va undan $\frac{1}{8}, \frac{2}{8}, \frac{4}{8}, \frac{7}{8}$

kasrlarga mos kesmalarni belgilang.

554-misol.

Son nurida ushbu kasrlarni belgilang.

1) $\frac{1}{10}$ 2) $\frac{4}{10}$ 3) $\frac{5}{10}$ 4) $\frac{7}{10}$ 5) $\frac{3}{10}$ 6) $\frac{9}{10}$

Sonlar	$\frac{1}{2}$	$\frac{4}{3}$	17
Natural son			
To'g'ri kasr			
Noto'g'ri kasr			

Darsni yakunlash: uyga vazifa 556- va 558- misollarni yechish